

SUT TISHLARNI VAQTIDAN OLDIN OLINISHI SABABLI YUZAGA KELUVCHI IKKILAMCHI DEFOTMATSIIYA TURLARI.

Karimova M.A., 505a guruh "Bolalar stomatologiyasi" fakulteti talabasi

Ilmiy rahbar: Aripova G.E., Ortodontiya va tishlarni protezlash kafedrası
dotsenti

Rasulova Sh.R., Ortodontiya va tishlarni protezlash kafedrası assistenti

Tashkent davlat stomatologiya instituti, O'zbekiston

Dolzarbli: Hozirgi vaqtda bolalarda karies va uning oqibatları, jarohat va boshqa sabablar tufayli tishlarni yo'qotilishi ko'p uchramoqda. Sut tishlarini vaqtidan oldin yo'qotilishi esa o'z navbatida bir necha xil ikkilamchi defotmatsiyalarni rivojlanishiga sabab bo'ladi. Natijada bolalarda tish qatorlari va tishlov buzilishi kuzatilmoqda.

Bunda bolalarda tishlarning retensiyasi yoki doimiy tishlarning chiqishi kechikishi kuzatiladi. Chunki, sut tishlari olingandan so'ng doimiy tish kurtaklarini rivojlanishini stimullovchi omil ham yo'qotiladi. Shuningdek, sut tishlarini erta olinishi jag' suyaklarini o'sishini sekinlasib, rivojlanishdan ortda qolishiga ham sabab bo'ladi. Sut chaynov tishlari yoki ba'zan doimiy birinchi molyarlarning erta yo'qotilishi esa tishlovning chuqurlashuvi, yuzning pastki qismi kaltalashuvi bilan namoyon bo'ladi.

Tadqiqot maqsadi: Bolalarda sut tishlarini vaqtidan oldin yo'qotilganda kelib chiquvchi ikkilamchi deformatsiya turlarini o'rganish.

Materiallar: 26 ta bemor bemorning fotosuratları, ortopantomogramma va yon telerentgenogrammasi, modellari.

Metodlar: 26ta bemorning fotosuratları, ortopantomogramma va yon telerentgenogrammasi tahlili, modellarining antropometrik tahlili.

Tadqiqot natijasi: Tadqiqotdan quyidagi natijalar olindi:

Xulosa: Sut tishlarining erta tish qatorlari va tishlovdagi ikkilamchi o'zgarishlaridan tashqari olinishi ham estetik ham nutq buzilishiga sababchi bo'ladi. Ikkilamchi deformatsiyalar har bir bemorda individual rivojlanib, boalarning qaysi yoshida olinishiga, qaysi guruh tishlarning yo'qotilganiga qarab turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar

1. Глухова, Ю. М., and Н. С. Шпак. "Применение индекса ICON при оценке эффективности исправления зубочелюстных аномалий у подростков и взрослых." Вестник общественного здоровья и здравоохранения Дальнего Востока России 3 (2014): 2-2.

2. Murtazaev, Saidmurodkhon Saidaloevich, Makhmud Zakirovich Dushmanamedov, and Saidazim Saidagzamovich Murtazaev. "Ethnic aspects of orthognathic bite." European science review 7-8 (2015): 80-84.

3. Шомухамедова, Ф., Д. Сулейманова, and Г. Муротова. "ОЧИЖ ПРИКУСЛИ БЕМОРАНИ ТАШХИСИ ВА УЛАРИ ОРТОДОНТИК ДАВОЛАШ." Медицина и инновации 1.4 (2021): 442-446.

4. Kovalenko, L. I., et al. "DARST. UND TRENNUNG VON EXO-UND ENDO-1, 3-DIMETHYL-BICYCLO (2, 2, 1) HEPTAN." Chemischer

Informationsdienst. Organische Chemie 1.33 (1970): no-no.

5. Рузметова, И. М., Р. Нигматов, and Ф. А. Шомухамедова. "Изучение аномалии зубочелюстной системы и профилактика вторичных деформации зубной дуги у детей в период сменного прикуса." Вестник КГМА им. ИК Ахунбаева 4 (2015): 50-55.

6. Флейшер, Григорий. Пропедевтика детской ортопедической стоматологии. Руководство для врачей. Litres, 2022.

7. Расулова, Ш., et al. "Построение математической модели с учётом зависимости длины переднего отрезка зубных рядов и ширины верхних резцов (по Корхаусу)." Stomatologiya 2 (83) (2021): 44-46.

PAR INDEKSI BO'YICHA ORTODONTIK DAVOLASH SIFATINI BAHOLASH.

Xoshimov Sh. D. - TDSI403 guruh BS fakulteti talabasi.

*Ilmiy rahbar: Mavlonova M.A.-Ortodontiya va tishlarni protezlash kafedrası
assistenti*

Toshkent davlat stomatologiya instituti, O'zbekiston

PAR (Peer Assessment Rating) indeksi dastlab davolash samaradorligini baholash uchun qo'llaniladi. Ballar tadqiqot modellari natijalaridan foydalangan holda davolashdan oldin va keyin omillar soni bo'yicha qayd etiladi. Davolashning boshida va oxirida PAR ballari o'rtasidagi farqni hisoblash mumkin va natijada foiz o'zgarishi davolash samaradorligini aks ettiradi. Davolashning yuqori darajadagi muvaffaqiyati bilan 70% dan ortiq foiz kamayishi xarakterlidir. 30% yoki undan kamroq o'zgarish kam yaxshilanish borligini ko'rsatadi. Davolashning boshida PAR ballarining yig'indisi malokluziyaning og'irligini ko'rsatadi. Shubhasiz, dastlabki ballari past bo'lgan hollarda PARni sezilarli darajada kamaytirishga erishish qiyin bo'ladi.

Ushbu ishning maqsadi PAR indeksiga ko'ra vestibulyar breket tizimi bilan ortodontik davolash sifatini aniqlash.

Materiallar va tadqiqot usullari. 10 yoshdan 21 yoshgacha bo'lgan 32 bemorda (20 ayol va 12 erkak) (o'rtacha yoshi 15,5 yosh) PAR indeksidan foydalangan holda ortodontik davolashdan oldin va keyin tish anomaliyalarining darajasi aniqlandi. Richmond va boshqalarning tavsiyalariga ko'ra, ortodontik davolash sifati quyidagicha baholandi: agar PAR indeksining yig'indisi < 5 ball bo'lsa, u holda okklyuziya deyarli mukammal deb hisoblanadi va agar ballar yig'indisi < 10 bo'lsa, bu maqbul deb baholanadi. PAR indeksining dastlabki qiymatiga nisbatan yaxshilanish foizi hisoblab chiqildi. Tasviriy statistik usullardan foydalanilgan Ikki guruhdagi farqlarning ahamiyati Kruskal-Wallis testi yordamida baholandi. Farqlar $p < 0.05$ da statistik ahamiyatga ega deb hisoblandi.

Tadqiqot natijalari. Ortodontik davolanishdan o'tgan bemorlarning ko'p qismini ayollar (62,5%) tashkil etdi. Erkak bemorlar 37,5% ni tashkil qiladi. Bizning davolashimiz natijasida 28 bemor ideal okklyuzionga erishdi va 5 bemor maqbul okklyuziyaga erishdi. Davolanishni tugatgandan so'ng bemorlarning hech biri 10 balldan ortiq PAR indeksini olmagan. 14 bemorda davolanishdan keyin PAR indeksining qiymati nol ballni tashkil etdi.